



Xalq so'zi

2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 26-dekabr, № 273 (9168)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



VASHINGTON VA TOSHKENT O'RTASIDAGI HAMKORLIK MISLI KO'RILMAGAN YUKSAK DARAJADA

Amerika va Kanada OAVlari hamda ekspertlari O'zbekiston va AQSh Prezidentlarining 23-dekabr kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqoti haqida



E'tirof

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23-dekabr kuni AQSh Prezidenti Donald Tramp bilan o'tkazgan telefon orqali muloqoti Amerika va Kanada ommaviy axborot vositalari, AQSh ekspert-tahlil doiralari vakillarining e'tiborini tortdi.

Xususan, yetakchi elektron

va bosma nashrlar, “The Washington Post”, “Investing.com”, “Bloomberg”, “Reuters”, “NewsMax”, “The National Desk”, “The Times of Central Asia” axborot agentliklari, Kanadaning “The Canadian Press” va “CityNews” nashrlari Prezident Donald Tramp Qozog'iston va O'zbekiston yetakchilariga kelgusi yilda AQSh shafeligida bo'lib

o'tadigan “Katta yigirmatalik” (G20) sammitiga taklifnoma yuborishini ma'lum qilgani haqida yozgan.

Xabarda ta'kidlanishicha, O'zbekiston va Qozog'iston “Katta yigirmatalik”ka a'zo emas, biroq “AQSh bu respublikalarni taklif etishga qaror qilgan, chunki “Har ikki davlat bilan munosabatlar ajoyib” (Donald Trampning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy bayonotiga havola).

“Donald Tramp ma'muriyati yuqori texnologiyali qurilmalar, jumladan, smartfonlar, elektromobillar va qiruvchi samolyotlar uchun zarur bo'lgan nodir metallarni qidirishni faollashtirib, ulkan foydali qazilmalar zaxiralarga ega bo'lgan va dunyo uranning taxminan yarmini ishlab chiqaradigan Markaziy Osiyoga ko'proq e'tibor qaratmoqda”,

deb yozishdi “The Washington Post”da.

“Bloomberg” axborot agentligi muxbirining yozishicha, bunday qaror Vashingtonning o'sib borayotgan strategik manfaatlari va uzoq muddatli aloqalarni yanada mustahkamlashga intilishi bilan bog'liq.

Amerikaning “Investing.com” iqtisodiy nashri, “Reuters” va “NewsMax” axborot agentliklarining xabarlarida Donald Trampning O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlari bilan telefon orqali muloqotlari davom etayotgan mojarolarda tinchlik o'rnatish hamda AQSh va Markaziy Osiyoning ikki yirik davlati o'rtasidagi savdo va hamkorlikni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

“The National Desk” nashri xabarida Qo'shma Shtatlar kelasi

yili “G20” sammitiga mezbonlik qilishi ochiqlandi va Donald Trampning so'zlaridan iqtibos keltirildi: “Biz ikkala yetakchiga Mayamida bo'lib o'tadigan ushbu juda muhim tadbirda mehmon sifatida bizga qo'shilish uchun taklifnoma yuboramiz!”.

“The Times of Central Asia” nashrida ikki tomonlama aloqalar faollashgani va aviatsiya, avtomobilsozlik, tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, energetika va texnologiyalar kabi sohalarda qo'shma loyihalar amalga oshirilayotgani, ushbu tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmlari, jumladan, Amerika – O'zbekiston ishbilarmonlar va investitsiya kengashi hamda rejalashtirilayotgan qo'shma Investitsiya jamg'armasi tashkil qilingani qayd etilgan. ➡2

Senat qo'mitalarida

VOHA YOSHLARINING BANDLIGI HOLATI KO'RIB CHIQILDI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi majlisida senatorlar, mahalliy Kengashlar deputatlari, Yoshlar parlamenti a'zolari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi vakillari hamda ekspertlar tomonidan Surxondaryo viloyatida yoshlar, xususan, ta'lim muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, joriy yil boshida viloyatdagi 723 ta mahallada o'tkazilgan xatlovda 7,8 ming ishsiz yosh aniqlangan. Ularni ishli qilish maqsadida viloyat, shahar va tumanlardan 357 nafar rahbar xodim birlashtirilgan hamda yoshlar bandlik dasturlari ishlab chiqilgan. Dastur ijrosini ta'minlash uchun ishsiz yigit-qizlardan 7 786 nafarining turli yo'nalishlarda bandligi ta'minlangan.

2024/2025 o'quv yilida viloyat bo'yicha oliy ta'lim muassasalarini bitirgan 17 305 talabdan 16 183 nafari, kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'qigan 9 312 o'quvchidan 5 799 nafari ishga joylashtirilgan.

Viloyatda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiyalayotgan shaxslar zaxiradagi 1 995 ta ish o'rnidan 872 tasini band etdi.

“O'zmilliybank” AJ tomonidan “Kelajakka qadam” dasturi doirasida 372 nafar oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisiga 9,9 mlrd. so'm,

“Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 729 nafar tadbirkorlik subyektiga 82,5 mlrd. so'm kredit mablag'lari ajratilgan.

Muhokama jarayonida yoshlar bandligi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda, mazkur yo'nalishda jiddiy muammolar ham ko'zga tashlandi.

Xususan, hisobga olish va bandlik ko'rsatkichlarini aniq yuritishda bir qator kamchiliklar mavjud. Misol uchun, oliy ta'lim muassasalarining 31 nafar bitiruvchisi bir vaqtning o'zida yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini o'zi band qilgan shaxslar ro'yxatida, shuningdek, Yagona milliy mehnat tizimi bazasida qayd etilgan.

2024/2025 o'quv yilida viloyatda 52 ta kasbiy ta'lim tashkilotini (texnikum, kollej) 9 312 nafar talaba bitirgan bo'lib, ulardan 38 foizining, mehnat migratsiyasidan qaytgan 36 417 nafar yoshdan 21 270 nafari (58 foizi)ning bandligi ta'minlanmagan. ➡2

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVGA ERISHISH KAFOLATLARI KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bilan hamkorlikda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari” mavzida davra suhbatini tashkil qilindi.

Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Konstitutsiyaviy sud sudyalari, Sudyalari oliy kengashi, Adliya vazirligi vakillari, Odil sudlov akademiyasi professor-o'qituvchi va tinglovchilari, shuningdek, Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmii-maslahat kengashi a'zolari, Advokatlar palatasi hamda jurnalistlar ishtirok etdi.

Tadbir Prezidentimizning shu yil 18-dekabrda “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni mazmun-mohiyati va undan kelib chiqadigan vazifalarga bag'ishlandi.

Davra suhbatini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov kirish so'zi bilan ochdi.

Ta'kidlanganidek, farmon bilan

Konstitutsiyaviy sud faoliyatini yanada takomillashtirish, uning ishiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, ichki tuzilishi qayta ko'rib chiqilib, konstitutsiyaviy nazorat samaradorligini yuqori pog'onaga olib chiqishning yangi huquqiy asoslari takomillashtirildi.

Ushbu hujjat mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sudning mustaqilligi va konstitutsiyaviy qonuniyligini ta'minlashga ta'sirini mustahkamlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy odil sudlovga erishish kafolatlarini kuchaytirish, sud jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir. Bu hujjat yurtimizda konstitutsiyaviy qonuniyligini ta'minlash va jamiyatda adolat prinsiplarini qaror toptirish yo'lidagi navbatdagi katta qadam bo'ldi. ➡2

Senatorlar – hududlarda

YASHILLIKKA YASHIL YO'L

Avval xabar berganimizdek, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Anvar To'ychiyev boshchiligidagi ishchi guruh “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Qashqadaryo viloyatida hududlarni ko'kalamzorlashtirish, daraxtlar ekish va parvarishlash, yashil bog'lar, yashil jamoat parklari barpo etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganmoqda.

Xususan, ishchi guruh G'uzor tumanidagi “Sho'rtan gaz-kusimo majmuasi” mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

Mazkur jamiyat ta'sischiligidagi Sho'rtan qo'rg'oni hududida “Sho'rtan yashil makon” MChJ tashkil etilib, 131 gektar maydonda 53 ming tup suvsizlikka chidamli, mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan hamda agrotexnika qoidalarini asosida parvarish qilib kelinmoqda.

Ekilgan ko'chatlar sug'orilishi va parvarish ishlari alohida nazoratga olinib, ushbu maydonda 4 ta nasos stansiyasi qurilgan.

Shuningdek, ko'chatlarni sug'orish uchun zamonaviy tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan.

Ishchi guruh ko'chatlarni agrotexnik talablarga mos ravishda ekish, ularni parvarishlash, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish tadbirlarini to'g'ri tashkil qilish yuzasidan zarur tavsiyalar berdi.

Bundan tashqari, o'rganishlarda yirik sanoat korxonalari va ularga tutash hududlarda hamda chiqindi poligonlari atroflarida “yashil belbog'lar” yaratishga alohida e'tibor qaratilib, bu bo'yicha mas'ullarga tavsiyalar berilmoqda.

“Xalq so'zi”.



Bu yil yurtimizning bosh archasi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi oldidagi maydonda o'rnatildi. 33 mingdan ziyod o'yinchoqlar hamda minglab nur sochgan chiroqlar jilo bergan archa atrofida yorqin

shou-dasturlar, turli ko'ngilochar tomoshalar, taniqli san'atkorlar va yosh ijrochilarning konsert dasturlari namoyish etilmoqda.

Yangi yil eshik qoqarkan, uning shukuhi, sirli-sehrli lahzalarini ertakmonand sarguzashtlari

bolajonlar qalbini allaqachon zavq-shavqqa to'ldirmoqda. “Prezident archasi” tadbirlari ushbu bayramning eng hayratlanarli, hayajonlarga, quvonchu shodliklarga to'la ayyomi. Shu bois yurtimizning barcha hududida mazkur tadbiri o'g'il-qizlar intiq-intizor kutadi. Katta tantana, ko'tarinki kayfiyat bilan nishonlaydi.

Poytaxtimizdagi “O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida o'tkazilgan “Prezident archasi” tantanalari ham ana shunday baland ruhi, beqiyos shukuhi bilan bolajonlar qalbiga bir umrlik iliq xotiralar ulashdi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil etilgan ushbu tantanalari tadbiriga Mehribonlik uylari, maxsus maktab-internatlar, oilaviy bolalar uylarining kichikintoylari, serfarzand, alohida ehtiyojli bolalar taklif etildi.

...Saroy foyesi bayramona

MEHR ZIYOSIDAN DILLAR CHAROG'ON

Ayni kunlarda butun xalqimiz Yangi yil bayrami shukuhi, tarovati bilan yashamoqda, desak, ayni haqiqat. Jumladan, 25-dekabrda poytaxtimizdagi qator madaniyat va istirohat bog'larida, xiyobonlarda, belgilangan jamoat joylarida Yangi yil bayram tadbirlari boshlandi.

Shukuh

bolajonlar qalbini allaqachon zavq-shavqqa to'ldirmoqda. “Prezident archasi” tadbirlari ushbu bayramning eng hayratlanarli, hayajonlarga, quvonchu shodliklarga to'la ayyomi. Shu bois yurtimizning barcha hududida mazkur tadbiri o'g'il-qizlar intiq-intizor kutadi. Katta tantana, ko'tarinki kayfiyat bilan nishonlaydi.

Poytaxtimizdagi “O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida o'tkazilgan “Prezident archasi” tantanalari ham ana shunday baland ruhi, beqiyos shukuhi bilan bolajonlar qalbiga bir umrlik iliq xotiralar ulashdi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tashkil etilgan ushbu tantanalari tadbiriga Mehribonlik uylari, maxsus maktab-internatlar, oilaviy bolalar uylarining kichikintoylari, serfarzand, alohida ehtiyojli bolalar taklif etildi.

...Saroy foyesi bayramona



shukuhga to'lgan. Turfa o'yinchoqlar, rang-barang chiroqlar, zarlar bilan bezatilgan ulkan archa kamalakdek tovlanib, kichikintoylarni atrofiga chorlaydi. Bolalar turli ertak qahramonlari, Qorboboyu Qorqiz bilan maza qilib o'ynaydi, qo'shiq va she'rlar aytib, raqsga tushadi...

Aytish kerakki, ko'ngillarni ziyoga to'ldiruvchi ushbu manzara mamlakatimizda yosh avlod ertamizning umidi, Yangi O'zbekistonning bebaho boyligi sifatida e'tibor va mehr og'ushida ekanining yana bir amaliy ifodasidir. ➡2

YANGILIKLAR

xabarlar

TAFSILOTLAR

NUFUZLI FORUM ILK BOR TOSHKENTDA O'TKAZILADI

Investorlar va tadbirkorlar uchun mo'ljallangan nufuzli venchur tadbir – “Central Eurasian Venture Forum – 2026” (CEVF) 2026-yil 3-aprel kuni ilk bor Toshkent shahrida bo'lib o'tadi.

“MOST” investitsiya xoldingi tomonidan tashkil etilayotgan yubiley – beshinchi “Central Eurasian Venture Forum” doirasida Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan investorlar, venchur fondlar, korporatsiyalar, texnologik tadbirkorlar hamda rivojlanish institutlarini Toshkentda jamlaydi.

“CEVF” yangi global sharoitlarda investitsiyalar, venchur va sun'iy intellektga asoslangan kompaniyalarni rivojlantirish yondashuvlaridagi o'zgarishlarga bag'ishlanadi.

Forum IT Park Uzbekistan bilan hamkorlikda tashkil etilib, xorijiy kapitalni jalb qilish, yangi fondlar va hamkorliklarni yo'lga qo'yish uchun muhim platforma bo'lishi kutilmoqda.

KONDAGI GEOLOGIK NATIJA

Ustyurtdagi “Mo'ynoq” konida muhim geologik natijaga erishildi. “O'zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati axborot xizmati xabariga ko'ra, kecha – 25-dekabr kuni uchinchi izlov qudug'idan sanoat miqyosidagi tabiiy gaz oqimi olingan.

Quduqda burg'ilash ishlari joriy yilning 8-sentabr kuni “O'zneftgaz burg'ilash ishlari” tomonidan boshlangan bo'lib, quyi yura qatlamlari – 4 940 metr chuqurlikkacha burg'ilangan. Endi uch sutka davomida quduq mahsuldor qatlamining tabiiy xususiyatlari o'rganiladi. Ushbu tadqiqotlar natijasida quduqning sutkalik debiti, qatlam bosimi va boshqa muhim parametrlari aniqlanadi.

Ayni paytda Mo'ynoq maydonida yana ikkita quduqda burg'ilash va sinash ishlari jadal davom etayotir. Tez kunlarda ushbu quduqlardan ham natijalar olinishi kutilmoqda.

YIRIK TURARJOY MAJMUASI

Qarshi shahrining Kat mahallasi hududida 2023-yildan buyon 12 ta ko'p qavatli uyni o'z ichiga olgan, kichik shaharcha ko'rinishiga ega bo'lgan majmua qurilayotgan edi. Kuni kecha loyiha doirasidagi obyektlarning bir qismi foydalanishga topshirildi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tantanalari tadbirida so'zga chiqqanlar tomonidan 4,3 gektar maydonni egallagan yirik uy-joy massivida inson ehtiyoji uchun zarur barcha sharoit yaratilgani ta'kidlab o'tildi.

Darhaqiqat, bu yerda ish boshlagan zamonaviy savdo va xizmat ko'rsatish majmualari, ko'ngilochar maskanlar, bolalar o'yinchoqlari nafaqat massiv, balki shahar aholisi uchun katta qulaylik yaratadi. Eng muhimi, majmua quyosh panellari orqali elektr energiyasi bilan ta'minlanmoqda.

“Xalq so'zi”.



VASHINGTON VA TOSHKENT O'RTASIDAGI HAMKORLIK MISLI KO'RILMAGAN YUKSAK DARAJADA



➡ Kanadaning "The Canadian Press" markaziy nashri va "CityNews" axborot agentligi vakillari ta'kidlashicha, "Bu strategik qadam ma'muriyat Donald Trampning birinchi muddati tashqi siyosatining asosiy yutug'i bo'lgan tashabbusni qayta tiklashga urinayotgan bir paytda amalga oshirildi. Xususan, uning jamoasi Isroil va Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn va Marokash o'rtasida diplomatik hamda savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan. Bu safar "strategik e'tibor Markaziy Osiyo mintaqasiga, xususan, O'zbekiston va Qozog'istonga qaratildi, chunki AQSh muhim mineralarni yetkazib berishning barqaror zanjirlariga jiddiy e'tibor qaratgan".

Ushbu tashabbusning yetakchi ommaviy axborot vositalarida yoritilishi uning keng siyosiy va strategik kontekstini tushunishga urinishlar bilan birga kechdi. Shu nuqtayi nazardan, amerikalik tahlilchilar va ekspertlarning baholari alohida qiziqish uyg'otmoqda. Ular O'zbekiston va Qozog'istonning "G20" sammitida ishtirok etishini bir martalik diplomatik ishora deb emas, balki mintaqaviy va jahon siyosatidagi chuqur o'zgarishlarning in'ikosi sifatida ko'rishmoqda. Jumladan, respublikachi senator Siv Deyns "X" platformasida quyidagilarni e'lon qildi: "AQSh, Qozog'iston, O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo

o'rtasidagi yaqin munosabatlarni mustahkamlash nafaqat maqsadga muvofiq, balki barcha manfaatdor tomonlar uchun strategik zarurdir. Men Prezident Donald Tramp va uning ma'muriyatini ushbu voqealarni tan olgani va Amerikaning Markaziy Osiyo bilan munosabatlariga ustuvor ahamiyat bergani uchun olqishlayman".

AQSh Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, AQShning Hindistondagi elchisi Serjio Gor ("X" platformasi) shunday yozadi: "Bugun Prezident D. Tramp telefon orqali muloqot qildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan. D. Tramp tinchlik va farovonlik tarafdori bo'lgan Prezident ekani ta'kidlandi. Men bunga to'liq qo'shilaman! AQSh Prezidenti rahbarligida son-sanoqsiz mojarolar to'xtadi va dunyo yaxshilandi!".

"Atlantic Council" tahliliy markazi huzuridagi Yevroosiyo markazi katta direktori, AQShning O'zbekistondagi sobiq elchisi Jon Xyorbst Samarqandda "C5+1" formatining yaratilishi AQShning Markaziy Osiyo bilan munosabatlarini rivojlantirishda muhim signal bo'lganini ta'kidladi.

– Prezident Donald Tramp va mintqa mamlakatlari yetakchilari ushbu formatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi, –

deydi ekspert. – Noyabr sammiti AQShning O'zbekiston, Qozog'iston va mintaqaning boshqa mamlakatlari bilan yanada yaqin munosabatlari kun tartibini shakllantirishda muhim qadam bo'ldi.

Bugungi kunda Vashington va Toshkent o'rtasidagi hamkorlik misli ko'rilmagan yuksak darajada. Bu birinchidan, "C5+1" formati doirasidagi o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish bilan bog'liq. Ikkinchidan, O'zbekistonni "G20" ishiga jalb qilish. O'zbekiston rahbariyati har doim Vashington bilan yanada yaqin va konstruktiv munosabatlarga intilib kelgan va uning sa'y-harakatlari tufayli bu jarayon faol amalga oshirilmoqda.

– O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidentlari o'rtasidagi navbatdagi telefon muloqoti haqidagi xabarni palatimiz a'zolari juda mamnun qabul qildi, – deydi Amerika – O'zbekiston savdo palatasi ijrochi direktori Yelena Son. – Oliy darajadagi bu muloqot to'g'ridan-to'g'ri ishonchli hamkorlikning namunasidir. Aloqalarining bunday shakli ikki tomonlama munosabatlar uchun barqaror va oldindan aytilish mumkin bo'lgan asosni shakllantiradi va ham Amerika, ham O'zbekiston biznesiga sezilarli amaliy foyda

keltiradigan qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Ayniqsa, "G20" sammitida ishtirok etish taklifi muhim siyosiy-iqtisodiy signal bo'lib, Toshkentning xalqaro subyektligini oshiradi va investorlarning olib borilayotgan islohotlarga ishonchini mustahkamlaydi.

"Project C.U.R.E." xayriya jamg'armasi direktori Ayub Ayubi bu haqda shunday fikr bildirdi:

– O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoni xalqaro ahamiyatga molik yangi bosqichga olib chiqish uchun mintqa anchadan buyon muhtoj bo'lgan yetakchidir. O'zbekiston Prezidentining AQSh yetakchisi, dunyoning boshqa rahbarlari bilan yo'lga qo'ygan munosabatlarini diqqatga sazovor va butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega.

O'zbekiston rahbariyati mas'uliyatini va uzoqni ko'ra biladigan yetakchilikni namoyon etib, yangi mintaqaviy kun tartibini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu, ayniqsa, diplomatiya barqaror rivojlanish va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy vositalaridan biriga aylanib borayotgan hozirgi dunyo sharoitida haqiqatan ham muhim va zarur strategiyadir.

“Dunyo” AA.

MEHR ZIYOSIDAN DILLAR CHAROG'ON



Keyingi yillarda ta'lim-tarbiya sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Navqiron avlodga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, orzu-umidlarini to'yog'ba chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Xususan, nogironligi bo'lgan, ota-ona qaramog'isiz qolgan, imkoniyati cheklangan bolajonlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha butunlay yangi tizim yaratildi.

"Prezident archasi" bayram tadbirlarida bunday g'amxo'rlik va e'tibor chuqur mazmun-mohiyati bilan yana bir bor namoyon bo'lmoqda.

Ushbu aygornin ko'tarinki ruhda va yuqori saviyada o'tkazish maqsadida ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan tegishli vazirlik hamda idoralar bilan hamkorlikda tizimli va samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bolalar uchun bayramona muhit yaratish, ularni sifati sovg'alalar bilan quvontirish hamda har bir bolaning e'tibordan chetda qolmasligini ta'minlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jumladan, Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilari, "SOS – bolalar mahallalari", oilaviy bolalar uylarida tarbiyalanayotgan o'g'il-qizlar, shuningdek, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar hamda yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo'lida halok bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining farzandlari uchun maxsus Prezident sovg'alari tayyorlandi.

Jami 11125 dona ana shunday sovg'a shakllantirilib, ular tarkibiga bolalarning ta'lim olishi va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga xizmat qiluvchi 24 nomdagi o'quv qurollari, shu bilan birga, 34 nomdagi shirinlik mahsulotlari kiritildi.

Ayni paytda Prezident sovg'alari mamlakatimiz hududlari bo'yab belgilangan manzillarga yetkazilmoqda. Ushbu tuhfa kichikintoylar qalbidagi Yangi yil shodiyonasini yanada oshirishi, ularning ertangi kunga ishonchi va orzularini mustahkamlashga xizmat qilishi muqarrar.

Tadbirda teatrlashtirilgan tomosha namoyish etildi. Ushbu musiqali dastur bolalarda ezigulikning umrbodiyiliga ishonch, har qanday vaziyatda sabr-bardoshi bo'lish, yuksak maqsadlar sari matonat bilan intilish tuyg'ularini yanada mustahkamladi.

Bir-biridan qiziqarli interfaol o'yinlar, ertak qahramonlari va sirk artistlarining chiqishlari, san'atkorlarning kuy-qo'shiqlari bolajonlarga chinakam quvonch bag'ishladi.

– Bu yilgi shodiyona har yilgidan-da qiziqarli bo'ldi, – deydi A. Xlebnushkina nomidagi 22-Mehribonlik uy direktori Dilfuza Jo'rayeva. – Ayniqsa, bayram dasturidan o'rin olgan do'stlikning qadr-qimmatini, bilim va ma'naviyatning beqiyos ahamiyati hamda yaxshilikning hamisha yomonlik ustidan g'alaba qozonishi tarannum etilgan rang-barang chiqishlar bolajonlarni ezigulikka chorladi. Hamjihatlik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat va sadoqat, halollik singari fazilatlarining o'zgacha namoyishidan bir olam taassurot oldik. Asosiysi, jajjilar ushbu bayram misolida Vatanimiz, davlatimiz va xalqimizning mehrini yana bir bor his etdi.

Dillarni charog'on qilgan "Prezident archasi" tadbirlari mamlakatimizning boshqa hududlarida ham o'tkazilmoqda.

Dilshod KARIMOV
("Xalq so'zi").

STRATEGIK IMKONIYATLAR YARATADIGAN MUHIM VOQEA

Bugun xalqaro vaziyat tez o'zgarayotgan, geosiyosiy xavf-xatarlar ortib borayotgan bir davrda O'zbekistonning dunyo yetakchi davlatlari bilan o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlar o'rnatib, o'zaro manfaatli hamkorlik olib borayotgani alohida ahamiyatga ega. Xususan, AQSh kabi global siyosat va iqtisodiyotda katta o'rin tutadigan davlat bilan strategik sheriklikni mustahkamlash bu faqat tashqi aloqalar emas, balki mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti va xavfsizligi uchun muhim omildir.

Fikr

Shu ma'noda, 23-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tgani va unda oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi muhokama qilingani e'tiborga molik. Chunki har qanday xalqaro

munosabatning samarasi uning amaliy natijalari bilan o'lchanadi. Bu borada O'zbekiston – AQSh hamkorligi aniq loyihalar, investitsiyalar va texnologiyalar almashinuvi orqali hayotga tatbiq etilmoqda.

Ayniqsa, hududlar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining yo'lga qo'yilgani tarixiy yangilik, desak, mubolag'a emas. Viloyatlarimiz delegatsiyalarining Amerika Qo'shma Shtatlari

bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatishi – investitsiyalarni joylarga jalb etish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, "S5+1" formati doirasidagi muloqotga alohida e'tibor qaratilgani O'zbekistonning mintaqaviy barqarorlik va ko'p tomonlama hamkorlikda faol o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Bu format nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlaydi, balki yirik xalqaro hamkorlar bilan umumiy yondashuvlarni shakllantiradi.

Albatta, bunday yuksak natijalar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari, ochiq va do'stona muloqotlari hamda milliy manfaatlarini qat'iy himoya qilgan holda olib borayotgan oqilona tashqi siyosati

samarasidir. Shu jihatdan, davlatimiz rahbari xalqaro maydonda O'zbekistonni ishonchli, mas'uliyatli va konstruktiv sherik sifatida mustahkam o'rin egallashida yangi bosqichni boshlab berdi, desak, ayni haqiqat.

Davlat rahbarlarining ushbu muloqoti ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi, mamlakatimiz oldida yangi iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarni ochishi bilan ahamiyatlidir. U O'zbekiston – AQSh munosabatlarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladigan, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun yangi strategik imkoniyatlar ochadigan muhim voqea sifatida tarixda qoladi.

Komila KAROMOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.



VOHA YOSHLARINING BANDLIGI HOLATI KO'RIB CHIQILDI

➡ Viloyat bo'yicha o'tkazilgan mehnat yarmakalarida 53 376 ta bo'sh ish o'rni taklif qilingan bo'lsa-da, ushbu yarmakalarda ishtirok etgan 5 382 nafar ishsiz yoshning 1 537 nafari (28,5 foizi) ishga joylashtirilgan, 3 401 yigit-qizga esa maslahat berilgan xolos.

Kasbiy ko'nikmalar markazida o'qishni tamomlagan 1 248 kishidan 56 foizining bandligi ta'minlanmagan.

Shuningdek, Savdo-sanoat palatasining viloyat boshqarmasi tomonidan tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitilgan 724 kishining ishga joylashgan-joylashmaganligi bo'yicha monitoring ishlari olib borilgan. Bundan tashqari, ayrim hududlardagi yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida zarur muhandislik-kommunikatsiya hamda transport infratuzilmasi yetarli darajada yaratilmagan.

Xususan, Qiziriq tumanidagi "Zarbador" hamda Qumqo'rg'on tumanidagi "Bog'aro" yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini elektr energiyasi va ichimlik suvi tarmoqlariga ulanmagan. Shuningdek, Angor tumanidagi "Bahor" yoshlar sanoat zonasida tabiiy gaz ta'minoti mavjud emas.

Hududdagi tuman va shaharlarda tashkil etilgan 12 ta yoshlar sanoat zonasida yo'l infratuzilmasini yaxshilash ishlari hanuzgacha to'liq yakunlanmagan.

Senatorlar yoshlar sanoat zonalarini infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha viloyat hokimligi bilan o'zaro hamkorlikda ish olib borilishini ta'kidladi.

Majlis yakunida qabul qilingan qarorga asosan o'rganish davomida aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish yuzasidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda boshqa mutasaddi tashkilotlar zimmasiga vazifalar yuklatildi.

KO'P XONADONLI UYLARNI BOSHQARISHDAGI HUQUQIY BO'SHLIQLAR TO'LDIRILADI

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi yig'ilishida ko'p kvartirali uylarni boshqarishga oid qonunga takliflar muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, qo'mita a'zolari, Senat devoni hamda tegishli vazirlik va idoralar mas'ul xodimlaridan iborat ishchi guruh tomonidan sohaga oid amaldagi qonunchilik hujjatlari har tomonlama tahlil qilinib, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi atroflicha o'rganib chiqilgan. Raqamlashtirish hamda zamon talablariga mos ravishda ko'p kvartirali uylarni boshqarish amaliyoti yuzasidan olib borilgan tahlillar, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish boshqaruv organlari faoliyati amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan to'liq va aniq tartibga solinmaganligini ko'rsatdi.

O'rganish yakunlari bo'yicha ishchi guruh tomonidan sohani tartibga solishdagi mavjud huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish hamda amalga oshiriladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga oid bir qator takliflar shakllantirilgan. Shundan kelib chiqib, ko'p kvartirali uy-joylarni boshqarish sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish hamda soha faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Ya'ni bu bilan 2019-yil 7-noyabrda qabul qilingan "Ko'p kvartirali uylarni boshqarish to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilinishi nazarda tutilmoqda.

QONUNCHILIKKA O'ZGARTIRISH KIRITISH TAKLIFI BERILDI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida sil kasalligining oldini olish bo'yicha ishlab chiqilgan qonunchilik takliflar mas'ul vazirlik va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida muhokama etildi.

Aytilganidek, 2001-yilda qabul qilingan "Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun ftiziatriya yo'nalishida amalga oshirilgan islohotlar natijasida qator o'zgartirishlar kiritishni talab etmoqda.

Xususan, silga qarshi kurashish muassasalarida davolanish uchun elektron navbat bo'yicha yo'llanma olish tizimi sil kasalligining yuqumli shakliga chalingan bemorlarni mazkur muassasalarga erta joylashtirish imkoniyatini cheklab qo'yimoqda. Bundan tashqari, bugungi kunda amalda qo'llanilayotgan sil kasalligini diaskintest va gamma-interferon yordamida aniqlash usullari, sil kasalligining so'nggi bosqichida uning og'ir alomatlarini yengillashtirishga, bemorning hayot sifatini yaxshilashga, ruhiy va ijtimoiy

Loyihaga ko'ra, sohaning huquqiy bazasini mustahkamlash maqsadida 8 ta yangi modda qo'shib, amaldagi 20 ta moddaga tahririy tuzatishlar kiritish nazarda tutilgan.

Senatorlar mazkur qonunchilik takliflarining kelgusida amaliyotga tatbiq etilishi ko'p kvartirali uylarni boshqarishda shaffoflik va samaradorlikning ta'minlanishiga, boshqaruv organlari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, raqamlashtirish hamda mulkdorlarning faol ishtirokini ta'minlash orqali uy-joy fondini yaxshilashga xizmat qilishi haqida fikr bildirdi.

Muhokama yakunida qonunchilik taklifi sifatida Qonunchilik palatasiga kiritish bo'yicha Senat Kengashiga taklif berish yuzasidan kelishib olindi.

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOVGA ERISHISH KAFOLATLARI KUCHAYTIRILADI



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi raisi Mirzo-Ulug'bek Abdusalomov kirish so'zida mazkur farmon Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur va izchil konstitutsiyaviy islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, u mamlakatimizda konstitutsiyaviy nazorat institutining o'rni, roli va ta'sirchanligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan strategik, siyosiy-huquqiy hujjat ekanini ta'kidladi.

Farmonda belgilangan vazifalarni hayotga tatbiq etish jarayonida Qonunchilik palatasi, Konstitutsiyaviy sud va ijro hokimiyati o'rtasidagi hamkorlik yangi, mazmunan boy va tizimli shakl kasb etib, bu mamlakatimizda davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi ishonch, ochiqlik va o'zaro mas'uliyat tamoyillarini yanada mustahkamlashni urg'ulandi.

Tadbir ishtirokchilari mazkur farmonning mazmun-mohiyati, ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tdi.

Qayd etilganidek, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini to'liq raqamlashtirish – tezkorlik va shaffoflikni oshirishga

xizmat qiladi. Bunday raqamlashtirish fuqarolar uchun qulaylik yaratadi, ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytiradi, ish yuritish sifatini oshiradi va sud qarorlarini qabul qilishda tezkorlikni ta'minlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada birinchi marotaba Konstitutsiyaviy sud har yili parlamentga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylilik holati to'g'risida axborot taqdim etishi belgilangan edi.

Farmon bilan Konstitutsiyaviy sud tomonidan yuqorida aytilgan axborot kiritilganda quyidagilar belgilanmoqda.

Xususan, axborotda qayd etilgan taklif va tavsiyalarni ko'rib chiqish natijalari yuzasidan chora-tadbirlar rejasini Oliy Majlis palatalari Kengashlarining qo'shma qarori bilan tasdiqlash hamda uning amalga oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish nazarda tutilmoqda.

Mas'ul davlat organlari esa Oliy Majlis palatalari Kengashlari tasdiqlagan chora-tadbirlar rejasida nazarda tutilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan belgilangan

muddatlarda parlament palatalari va Konstitutsiyaviy sudga axborot kiritishi mustahkamlanmoqda. Ya'ni bu orqali Konstitutsiyaviy sudning axborotida qayd etiladigan taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy qilishning aniq mexanizmlari belgilanmoqda.

Bundan tashqari, farmonda Konstitutsiyaviy sudning murojaatlarni ko'rib chiqishida yangi tartib belgilanyapti.

Endilikda Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi bo'lmagan fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan murojaat bo'lganda Konstitutsiyaviy sud uni shunchaki muallifga qaytarmaydi, balki Konstitutsiyaviy sudga murojaat etish huquqiga ega bo'lgan subyektaga yuboradi. Bu ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilishda konstitutsiyaviy nazoratning rolini oshirishdan darak beradi. Ya'ni Konstitutsiyaviy sudga murojaat bee'tibor qoldirilmaydi.

Farmonda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda Konstitutsiyaviy sud bir qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda bajaradigan vazifalar ham mavjud.

Davra suhbatida hamkor tashkilotlar vakillari ham so'zga chiqib, o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Yakunda Konstitutsiyaviy sud ish yurituvining qonuniy asoslarini takomillashtirish, bu borada parlamentning mas'ul qo'mitasi bilan yaqin hamkorlikni kuchaytirishda yakdil ekanligi urg'ulandi.

“Xalq so'zi”.



YANGI O'ZBEKISTON: TARAQQIYOT ODIMLARI

IJTIMOY HIMOYA SOHASIDAGI ISLOHOTLAR POYDEVORI

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini tubdan isloh qilish, mehnat bozorida adolat va shaffollikni ta'minlash masalasi davlat siyosatida eng muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, o'tgan davrda yurtimizda aholining ehtiyojmand qatlamlarini to'laqonli, manzilli va samarali ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirildiki, mazkur o'zgarishlar xalqimiz hayoti va kundalik turmushida yaqqol ifodasini topmoqda.

Yangi qonun



Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilanishi ijtimoiy himoya sohasidagi islohotlar uchun huquqiy asos yaratdi. Bosh qomusimizda bu tamoyilning mustahkamlab qo'yilishi davlatning fuqarolar farovonligini ta'minlashdagi asosiy burchi ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Konstitutsiyamizga asosan davlat zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy majburiyatlarni bajarish hamda yurtimizda ijtimoiy davlat barpo etish borasida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 1 million nafardan ziyod fuqarolar kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 6,6 foizga tushirildi.

Shu bilan birga, og'ir hayotiy vaziyatlarda aholining daromadsiz qolishi va kambag'allikka tushishining oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Natijada yangi ish o'rinlari soni oshib, aholining iqtisodiy faolligi yuksaldi. Norasmiy bandlik esa qisqarib, rasmiy mehnat munosabatlari kengaydi.

Prezidentimiz tomonidan shu yil 9-dekabr kuni imzolangan "Davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi Qonun mamlakatda yagona, barqaror va adolati ijtimoiy sug'urta tizimini shakllantirishga qaratilgan muhim hujjat bo'lib, u nafaqat fuqarolarning ijtimoiy kafolatlarni kengaytiradi, balki tadbirkorlar uchun ham ortiqcha moliyaviy yuklamalarni bosqichma-bosqich kamaytirishni nazarda tutadi.

Mazkur hujjatning maqsadi fuqarolarni vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganda yoki ishdan bo'shatilganda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va kambag'allikka tushish xavfini oldini olishdan iborat bo'lib, bu yangicha yondashuv orqali ham xodimlar, ham ish beruvchilar manfaatlarini himoya qiladi.

Qonunda davlat ijtimoiy sug'urtasi, uning subyektlari, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlar, sug'urta staji kabi tushunchalarga aniq ta'rif berildi. Davlat ijtimoiy sug'urtasining amal qilishi kimlarga nisbatan majburiy, yana kimlarga nisbatan ixtiyoriy asosda amalga oshirilishi o'z ifodasini topgan. Hujjat bilan uchta ijtimoiy hodisa yuzaga kelganda, ya'ni ayollarning tug'uruqchacha va tug'uruqdan keyingi davri uchun to'lanadigan homiladorlik va tug'ish nafaqasi, xodimlarning kasalligi sababli mehnatga layoqatsiz bo'lgan davri

uchun to'lanadigan vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi va xodim ishdan bo'shagani sababli to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi Davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan to'lab beriladi. Jamg'arma mablag'lari davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni, shu jumladan, mazkur to'lovlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga sarflanadi.

Qonunga binoan aholini sug'urtalash tartibi ham aniq belgilab berildi. Unga ko'ra, mehnat shartnomasi bo'yicha band xodimlar majburiy, yakka tartibdagi tadbirkorlar, o'zini o'zi band qilgan, dehqon xo'jaligi va tomorqada ishlovchilar, chet elda yollanib ishlaydigan fuqarolar esa ixtiyoriy asosda sug'urtalanadi. Rasmiy band bo'lgan barcha shaxslarga nafaqalar bosqichma-bosqich ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tomonidan to'lanishi yo'lga qo'yiladi.

Kelgusi yildan boshlab ayollarga homiladorlik nafaqasi, 2026-yil ikkinchi yarmidan esa vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari to'lab boriladi. Qolaversa, fuqarolarning murojaatlari asosida 2030-yil 1-yanvardan ishdan bo'shatish nafaqasi ham jamg'arma orqali tayinlanadi va to'lanadi. Bu tizimning joriy qilinishi natijasida 2,2 mln. byudjet korxonalari xodimlarining, 3,6 mln. dan ortiq xususiy sektorda band bo'lgan fuqarolar, 7 mln. dan ortiq YATT, o'zini o'zi band etgan hamda norasmiy sektorda mehnat qilayotgan fuqarolar, umumiy hisobda 13 mln. dan ziyod insonlarning ijtimoiy kafolatlari ta'minlanadi.

Aholi bandligini ta'minlash sohasidagi islohotlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri. Mazkur qonun, shubhasiz, O'zbekistondagi mehnat munosabatlarni tartibga solish, fuqarolarni turli ijtimoiy xavflardan himoyalash, rasmiy bandlik darajasini oshirish va biznes uchun qulay sharoit yaratish, eng muhimi, inson qadr-qimmatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mohira XO'JAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

Innovatsiya

Qorao'zak tumani O'zbekistonning eng chekka hududlaridan hisoblanadi. Bu yerda doim kuchli shamol esib turadi. Tabiatning bu ne'mati energiya manbaiga aylanib, har bir xonadonga umid, ishonch va qulaylik olib kirmoqda. Qoraqalpog'larda "Ulusning ulug' kuni" degan ibora bor. Ayniqsa, "Nukus – 1" shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgani tumanning energiya mustaqilligi yo'lida muhim qadam bo'ldi. Endi Qorao'zakning shamoli shunchaki tabiat hodisasi emas, balki yangi rivojlanish yo'lini ochuvchi ulkan imkoniyatdir.

SHAMOL QANOTIDAGI NUR

– Qorao'zakdagi shamol elektr stansiyasi Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi ishtirokidagi yirik loyihaning birinchi bosqichidir, – deydi stansiya direktori Sardorbek Mahmudov. – Ikkinchi bosqichda Beruniy tumanida 26 ta turbina o'rnatilib, 100 MVt quvvatga ega energiya saqlash tizimi barpo etiladi. Bu loyihani kelasi yil sentabrda ishga tushirish rejalashtirilgan. Qo'ng'iro't tumanida esa 1,5 GVt quvvatga ega ulkan shamol elektr stansiyasi loyihasi ustida ishlamoqda. Mutaxassislarning 80 foizi mahalliy yoshlar.

Bunday yirik loyihani amalga oshirishdan avval yillar davomida Qorao'zakning shamol tezligi, havo oqimlarining o'rtacha yo'nalishi va ekologik sharoitlar atroficha o'rganildi. Shu tadqiqotlar natijasida hududning shamol energetikasi uchun eng qulay joy ekanini aniqlandi. Loyihaning umumiy qiymati 107 mln. dollar,

quvvati 100 megavatt bo'lib, unda har biri 6,5 MVt quvvatga ega 16 ta zamonaviy shamol turbinasi qad rostladi. Bu turbinalar yil davomida taxminan 350 mln. kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Hozirda to'liq quvvatda ishga tushirildi.

– "Nukus – 1" shamol elektr stansiyasi ishga tushirilgani hazilakam ish emas, – deydi stansiya energetigi Timur Seyitnazarov. – Ko'plar shamoldan elektr olish g'oyasiga shubha bilan qaragandi. Hozir bu loyiha amalda o'zini to'liq oqlamoqda. Har bir turbinadan chiqadigan energiya, har bir megavatt quvvat nafaqat Qorao'zak, balki butun mamlakatning energetik mustaqilligiga hissa qo'shayapti.

Bugun dunyoda sanoat rivojlanishi ma'lum darajada tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgani sir emas. Shu bois bugun yurtimizdagi ekologik vaziyatdan kelib chiqib, sanoat korxonalarining atrof-muhitga

ta'sirini minimallashtirish choralari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Qorao'zakdagi shamol elektr stansiyasi qurilishidan avval ham bunga alohida e'tibor qaratilib, atrof-muhitni himoya qilish tadqiqotlari o'tkazildi va barcha texnologiyalar ekologik standartlarga muvofiq tanlandi.

– Qurilishdan oldin hududning flora va faunasi sinchiklab o'rganilib, 240 ga yaqin O'rta Osiyo toshbaqalari maxsus konsultantlar nazoratida 2,5 km. uzoqlikka ko'chirildi, – deydi tajribali ekolog Anvar Atomuratov. – Qushlar xavfsizligi uchun AQShdan 6 mingta maxsus jihoz olib kelinib, yuqori kuchlanishli liniyalarga o'rnatildi. Stansiya ishga tushirilishi natijasida 100 mln. kub metr tabiiy gaz tejalandi, atmosferaga chiqadigan 180 ming tonna karbonat angidrid gazichiqindilarining tarqalishi kamayadi. Bu nafaqat mintaqaning ekologik barqarorligi,



balki energetika samaradorligini ham ta'minlaydi. Agarda bu stansiya ishlab chiqaradigan energiyani xonadonlar misolida aytadigan bo'lsak, 140 ming xonadonni elektr bilan ta'minlash quvvatiga ega. Bu – Qorao'zakka o'xshash 12 ta tuman xonadonlari sarflaydigan energiyani ishlab chiqaradi, degani.

– Oldinlari bu yerda faqat qurilish materiallari chiqarilardi, – deydi mehnat faxriysi Qidirniyoz Dosnazarov. – Hozirda granit, temir, mis va oltin qazib olinib, qayta ishlanmoqda. Ayni paytda ishga tushirilgan va tushirilayotgan shamol elektr stansiyalari katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. E'tiborlisi, bu

endilikda qanchadan-qancha kichik biznes loyihalarini energiya bilan ta'minlashini hisobga olsak, xalqimiz uchun nechog'li muhim ahamiyat kasb etishi yanada yaqqol ko'rinadi.

Qorao'zak kengliklari nafaqat tabiat boyligi, balki inson mehnati va zamonaviy texnologiyalar uyg'unlashgan maskanga aylanmoqda. Ular hududda yangi g'oyalarga, sanoat va iqtisodiy rivojlanishga ilhom bag'ishlayotgani bilan ham ahamiyatlidir. Shamollar qanotida kelgan nur esa Qoraqalpog'iston bo'ylab yorug'lik ulashmoqda.

G'ayrat OTAJONOV
("Xalq so'zi").

INVESTITSIYA — IQTISODIYOT DRAYVERI

Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan izchil siyosat tufayli so'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Ishlab chiqarish, infratuzilma va xizmat ko'rsatish sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilib, yuqori daromadli ish o'rinlari yaratilyapti. Yuz berayotgan bu ijobiy o'zgarishlarda mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsiyaviy muhit muhim o'rin tutadi. Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinbosari vazifasini bajaruvchi Akram ALIYEV bilan suhbatimiz ayni shu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida bo'ldi.

Sarhisob

– Bugun dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy tebranishlar yirik xalqaro investorlarni ehtiyotkorlik bilan qaror qabul qilishga undamoqda. Shunday bir sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotining xorij sarmoyalari uchun jozibadorligini oshirish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– Har qanday sarmoyador biror-bir mamlakatda amalga oshirilayotgan loyihaga mablag' kiritishdan oldin u yerda yaratilgan investitsiyaviy muhitni obdan o'rganib chiqadi. Bu yerda iqtisodiyotning erkinligi qay darajadagi, tadbirkorlarga qanday sharoitlar yaratilgani, infratuzilma qanchalik rivojlangani va boshqa shunga o'xshash ko'plab masalalar bilan qiziqadi. Chunki kiritayotgan sarmoyasining muvaffaqiyati ana shu omillarga bevosita bog'liq. Hozir dunyo iqtisodiyotida kuzatilayotgan beqarorlik esa investorlarni yanada hushyor tortishga, "yetti o'lchab, bir kesish"ga majbur qilmoqda. Bunday sharoitda mamlakatga xorijiy investorlarni jalb etish oson emas.

Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz tashabbuslari asosida mamlakatimizda investitsiyaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyot bosqichma-bosqich liberallashtirilib, raqobat muhiti mustahkamlanmoqda, iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish hamda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilyapti. Shuningdek, tashkiliy-huquqiy jihatlar ham diqqat markazida turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xorijiy investorlar kengashi tuzildi. Hukumatimiz biznesni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalarini soddalashtirdi. Endilikda bu ishni 30 daqiqa ichida amalga oshirish mumkin. 150 dan ziyod turdagi ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni olish jarayoni raqamlashtirilgani esa byurokratik to'siqlarni sezilarli darajada kamaytirdi. Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston investorlarga soliq imtiyozlari, bojxona to'lovlardan ozod qilish va mulk huquqlarini himoya qilish kafolatlarni o'z ichiga olgan bir qator preferensiyalarni taklif etdi.

Biznes uchun xavflarni kamaytirish maqsadida nizolarni adolatli va shaffof hal qilishni ta'minlovchi huquqiy tizimni takomillashtirish bo'yicha ham ishlar faol olib borilmoqda. Ilg'or xalqaro tajriba asosida "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi hamda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunlarning yangi tahriri loyihalarini ishlab chiqildi.

Ayni paytda mamlakatning sarmoyaviy muhitini baholash maqsadida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti bilan birgalikda Investitsiya siyosatiga oid loyiha amalga oshirilmoqda. Unga ko'ra, 8 ta yo'nalish, xususan, tadbirkorlikni mas'uliyatli boshqarish, soliq imtiyozlarini baholash, tartib-taomillarni soddalashtirish, sarmoya hamda savdo munosabatlari va boshqa jihatlar bo'yicha investitsiya muhiti tahlili olib borilmoqda. Tahlillar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Joriy yilda vazirligimiz tomonidan hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi reytingi ham ishlab chiqildi. Ushbu reyting hudud, tuman va shaharlar investitsiya salohiyati va



birinchi bosqichi ishga tushirildi.

Samarqand shahrida "Azia metall prof" MCHJ tomonidan 220 mln. dollarlik maishiy texnika va avtomashinalar uchun tunuka toboqlar ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilib, 300 ta ish o'rni yaratildi.

Uchko'prik tumanida "Yong xin" MCHJ tomonidan 70 mln. dollarlik keramogranit plitalar ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasining amalga oshirilishi 500 ta ish o'rni yaratish imkonini berdi.

Bekobod shahrida "O'zmetkombinat" AJ tomonidan qiymati 834 mln. dollarlik quyuv prokatlash majmuasini qurish loyihasini ishga tushirish orqali 1,2 mingta ish o'rni yaratildi.

2017 – 2024-yillarda qulay investitsiya muhiti yaratishga qaratilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti joriy narxlarda 62,1 milliard dollardan qariyb 115 milliard dollarga yetdi. 113,2 milliard dollardan oshiq xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Inflyatsiya darajasi 14,4 dan 9,8 foizgacha qisqardi.

boshqaruv samaradorligini baholash va uni yaxshilash choralarini ko'rish imkonini beradi.

– Bu sa'y-harakatlar qanday natija beryapti?

– Savolga aniq raqamlar bilan javob beradigan bo'lsak, Davlat investitsiya dasturiga ko'ra, joriy yilning to'qiz oyida 30,5 mlrd. dollar hajmdagi xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilgan bo'lib, amalda 35,7 mlrd. dollarlik investitsiyalar o'zlashtirildi. O'tgan yilgi ko'rsatkichga nisbatan o'sish 1,5 barobarni tashkil etdi. Shuningdek, 9 oyda qiymati 3,9 mlrd. dollarlik yirik va ahamiyatli 92 ta loyiha ishga tushirilib, 11,3 mingta ish o'rni yaratildi.

Masalan, tog'-kon sanoati sohasida "Bab energy ve petrol urunleri" MCHJ tomonidan Angren shahrida qiymati 60 mln. dollarlik "Apartak-3" ko'mir konini o'zlashtirish loyihasining birinchi bosqichini amalga oshirish 605 ta ish o'rni yaratish imkonini berdi.

Energetika sohasida Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi ishtirokida qiymati 1,3 mlrd. dollarlik loyiha – Buxoro viloyatining G'ijduvon va Peshku tumanlarida quvvati 1 GVt bo'lgan shamol elektr stansiyalarini qurish ishlari yakunlandi.

"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ tomonidan Turkiyaning "Iltelkno" kompaniyasi ishtirokida Toshkent shahrining Olmazor va Sergeli tumanlarida quvvati 3,5 MVt bo'lgan 11,9 mln. dollarlik kogeneratsiya qurilmalari o'rnatilib, 25 ta ish o'rni yaratildi.

Jizzax shahrida Xitoyning "Mingyuan silu industry" kompaniyasi ishtirokida quvvati 2 mln. kv.m. bo'lgan 70 mln. dollarlik qurilish oynasi ishlab chiqarish loyihasi ishga tushirildi.

Mamlakatimiz miqyosida yana ko'plab misollar keltirish mumkin.

– Istiqbolli loyihalarining ishga tushirilishi natijasida mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulot va tovarlar hajmi ham ortadi. Ularni eksportga yo'naltirish borasida ham qandaydir ishlar amalga oshirilyaptimi?

– Albatta. Mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish maqsadida amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar tufayli 2024-yilda tovarlar eksporti geografiasini yana 55 ta davlatni qamrab oldi va tashqi eksport bozorlari soni so'nggi 8 yil ichida 186 taga yetkazildi. Shu yil oktabr oyiga kelib O'zbekistonning AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlari kabi "premium" bozorlarga eksporti hajmi 17 foiz o'sib, 1,6 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda eksport sohasida so'nggi 8 yil davomida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston 2017-yilga qadar paxta xomashyosi eksportchisi sifatida tanilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib paxtani qayta ishlash orqali tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga to'qimachilik mahsulotlari eksporti 2,8 mlrd. dollarga yetdi. Hozirda eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish, jumladan, AQSh va

Yevropa davlatlariga eksportni amalga oshirish maqsadida AQShdan "Made with U.S. Cotton" dasturi doirasida paxta tolasini import qilish va ushbu mamlakatga tayyor mahsulotlarni qayta eksport qilish borasida ishlar olib borilmoqda.

Mahsulotni ishlab chiqarish va xorijiy xaridorga yetkazishgacha bo'lgan jarayonlarda tadbirkorlarni moliyaviy va tashkiliy qo'llab-quvvatlash maqsadida eksportchi korxonalarni Savdoga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ko'riyapti. Jumladan, joriy yilda xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish, standartlashtirish va sertifikatlash, xorijda savdo uylari va omborxonalar ochish, reklama kompaniyalarini tashkil qilish bo'yicha 156,5 mlrd. so'm moliyaviy ko'mak ko'rsatilib, 1,7 mlrd. dollarlik eksport ta'minlandi. Shu bilan birga, 331 ta korxonaga 269 mln. dollarlik aylanma mablag'lar ajratish orqali 1,1 mlrd. dollarlik eksportga erishildi.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, so'nggi yillarda O'zbekistonda eksportning zamonaviy mexanizmlari, jumladan, elektron tijorat platformalaridan foydalanish ham jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Prezidentimizning tegishli farmoni bilan ushbu yo'nalishda tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari tatbiq etildi. Natijada vazirligimiz tashabbusi bilan Xitoyning yetakchi elektron tijorat maydonchalarida "Xitoyga eksport" dasturi doirasida O'zbekistonning milliy pavilyoni va do'konlarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Umuman, bugungi kunda mamlakatimizda eksportchilar soni qariyb 9,5 mingtani tashkil etadi. Faqat shu yilning o'zida 2 816 ta korxona eksport faoliyatiga jalb etilib, ular tomonidan 1,8 mlrd. dollarlik mahsulot xorijga jo'natildi. Yangi korxonalarni eksportga keng ko'lamli jalb etish va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilish maqsadida vazirlik tomonidan eksport akselerator dasturlari amalga oshirib kelinmoqda. Joriy yilda ushbu dasturlar doirasida 100 ta korxona ochiq tanlov asosida tanlab olinib, ularga xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish, ishlab chiqarish faoliyatiga xalqaro standartlarni joriy etish, zamonaviy instrumentlar orqali xorijiy hamkorlar bilan eksport shartnomalari imzolashga ko'maklashildi.

Mamlakatimizda investitsiyaviy muhitni yaxshilash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishda hududlarda tashkil etilayotgan sanoat zonalarini ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda jami 746 ta sanoat zonasi mavjud bo'lib, shundan 46 tasi maxsus iqtisodiy zonalaridir. So'nggi 9 oyda umumiy qiymati 9,2 trln. so'm bo'lgan 76 ta loyiha ishga tushirildi.

Amalga oshirilayotgan bu ishlar mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuksaltirish orqali xalqimiz farovonligini oshirish, Yangi O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan.

Shuhrat JABBOROV
("Xalq so'zi") suhbatlashdi.

O'ZBEKISTON – YAPONIYA:

ILM-FAN VA INNOVATSIYALARGA ASOSLANGAN SHERIKLIK ISTIQBOLLARI

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlar mustaqillik yillaridan buyon izchil rivojlanib, bugungi kunda strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi. Siyosiy muloqot, iqtisodiy hamkorlik, infratuzilma loyihalari hamda ta'lim sohasidagi aloqalar ikki mamlakat munosabatlarning asosiy ustunlari hisoblanadi.

Nuqtai nazar

Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini 1991-yilda tan olgan ilk davlatlardan biri bo'lib, 1992-yilda ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Shundan buyon Yaponiya O'zbekistonning ishonchli hamkori sifatida energetika, transport, sog'liqni saqlash, suv ta'minoti va ta'lim sohalarida faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) orqali amalga oshirilayotgan loyihalar yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shyapti.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga amalga oshirgan ilk rasmiy tashrifi ikki tomonlama munosabatlarda muhim bosqich bo'ldi. Tashrif davomida investitsiyalarni jalb etish, yuqori texnologiyalar transferi, sanoat va ta'lim sohasida qo'shma loyihalarni rivojlantirish bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi. Mazkur bitimlar hozirgi kunda O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlashni sifat jihatdan yuksaltirishda yapon tajribasini hayotga tatbiq qilishda ham dasturlamal bo'lmoqda.

Kunchiqar yurtga safar natijalari

Shu yil oktabr oyida O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri boshchiligidagi delegatsiyalar Yaponiyaga tashrifini ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning samarasi deyish mumkin. Safar davomida oliygo'hlar o'rtasida aloqalarni kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlari va akademik almashinuvlarni yo'lga qo'yish bo'yicha bitimlar imzolandi. Bu jarayon ta'lim diplomatiyasini mustahkamlash va O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqaro maydonga integratsiyalashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Delegatsiya tarkibida Yaponiyaga safar davomida Sukuba shahrida bo'lib o'tgan "Tsukuba Conference 2025" xalqaro anjumani hamda Osaka shahrida o'tkazilgan "EXPO – 2025" ko'rgazmasida qatnashdik. Shuningdek, Tokio shahrida joylashgan Toyo va Meiji universitetlarida bo'ldik.

Toyo universiteti rektori Esuko Yaguchi bilan uchrashuvda O'zDJTU faoliyati, amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalar, talabalar va

professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Muzokaralar yakunida qator kelishuvlarga erishildi: almashinuv dasturini yo'lga qo'yish, yapon tili o'qituvchilarini O'zDJTUGa yuborish, talabalar uchun onlayn kurslar tashkil etish, 2026-yil bahorida Toyo universiteti talabalarining O'zbekistonda amaliyot o'tashini ta'minlash, qo'shma loyihalar va shartnomalarni amalga oshirishga kelishildi.

"Yangi cho'qqilar sari jamiyat bilan hamkorlikda" mavzuida o'tgan to'rtinchi "Tsukuba Conference 2025" xalqaro anjumani davlat boshqaruv, sanoat va ilm-fan sohalarining yetakchi vakillari global muammolarga fan va innovatsiyalar orqali yechim topish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Konferensiya doirasida Nobel mukofoti sovrindorlari va yetakchi universitet olimlari ishtirokida 35 dan ortiq sessiya va tadbirlar o'tkazildi.

Ayniqsa, Osaka shahrida o'tkazilgan "Hayot uchun kelajak jamiyatini loyihalashtirish" mavzuidagi "EXPO – 2025" butunjahon ko'rgazmasi esda qolarli bo'ldi. Tadbir davomida O'zbekiston, Yaponiya, Koreya Respublikasi hamda Birlashgan Arab Amirliklari pavilyonlari bilan tanishildi. O'zbekiston pavilyonida milliy madaniyat, turizm salohiyati va innovatsion loyihalar namoyishi etilib, mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy imijini targ'ib qilindi.

Meiji universiteti prezidenti Takashi Yanagiya bilan muzokaralarda talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish, grantlar ajratish, yapon tili o'qituvchilarini yurtimizga yuborish hamda qo'shma ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. E'tiborlisi, universitetning "Meiji University news" gazetasida O'zbekistonda ta'limga ulkan investitsiyalar ajratilayotgani va xalqaro hamkorlik barcha sohada keng rivojlanayotgani haqida maqola chop etildi.

Shuningdek, Bunkyo Gakuin universiteti prezidenti Tsutomu Fukui hamda boshqaruv kengashi raisi Shimada Masakazu bilan ham uchrashib, hamkorlikni kengaytirish va yangi shartnoma imzolash bo'yicha kelishuvga erishildi. Tokio chet tillari kolleji rahbariyati bilan uchrashuvda muassasa rahbari Kajihara Kouhei



bilan ta'lim dasturlari, tarjima laboratoriyalari, almashinuv dasturlari va professional tarjimonlar tayyorlash masalalari muhokama qilinib, hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Rektorlarning beshinchi forumi

Shu yil 30-31-oktabr kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan "Bilim va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik: inson taraqqiyoti va innovatsiyalar yo'lida fanlararo yondashuvlar" mavzuidagi O'zbekiston va Yaponiya oliy ta'lim muassasalari rektorlarining 5-forumi amalga oshirilayotgan ishlarining mantiqiy davomi bo'ldi.

“ Kunchiqar yurtning ta'lim va madaniyat orqali xalqaro nufuzni oshirish tajribasi O'zbekiston uchun muhim model hisoblanadi. Jumladan, O'zDJTU ishtirokidagi madaniy-ma'rifiy loyihalar, til markazlari va ilmiy forumlar ikki xalq o'rtasida o'zaro ishonch va do'stlikni mustahkamlashga muhim platformaga aylanyapti. ”

U O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Yaponiya Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi hamkorligida tashkil etildi. Ikki mamlakatning yetakchi universitetlari rahbarlari, taniqli olimlar, yetuk mutaxassislar qatnashgan tadbirida sohani yanada rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni jamiyat taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Anjumanda Yaponiya oliy ta'lim muassasalari bilan akademik almashinuv va hamkorlikni kengaytirish bo'yicha fikr almashdik. Mehmonlarga universitetimizda amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalar, xorijiy talabalar va professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, shuningdek, yapon tili va madaniyatini o'rganish yo'nalishidagi ta'lim dasturlari haqida batafsil ma'lumot berdik.

Tadbirning muhim voqealaridan biri – Yaponiyaning nufuzli Sukuba universiteti bilan talabalar almashinuv bo'yicha shartnoma imzolangan bo'ldi. Mazkur kelishuv oliygo'hlaramiz o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqib, ikki mamlakat yoshlari o'rtasida o'zaro tushunish, do'stlik va akademik tajriba

almashuvini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Forumda O'zDJTU hamda Sukuba universiteti o'rtasida akademik almashinuv va hamkorlik to'g'risida alohida shartnoma ham imzolandi. Ushbu bitim professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar almashinuvi, qo'shma ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, o'quv dasturlari, darsliklar va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish, qo'shma seminar, simpozium va konferensiyalar tashkil etish, magistratura va doktorantura darajasida qo'shma ta'lim dasturlarini joriy qilish yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Shuningdek, ilg'or tadqiqotlar bo'yicha doktorantura universiteti – SOKENDAI prezidenti, professor Takashi Nagata bilan ham "B to B" formatida uchrashuv o'tkazdik. SOKENDAI – Yaponiya bo'ylab 20 ta ilmiy tadqiqot institutini birlashtirgan yirik ilmiy markaz bo'lib, u yerda doktorlik darajasi bo'yicha ta'lim olib boriladi. Uchrashuvda mazkur

muassasa bilan professor-o'qituvchilar almashinuvi, ilmiy tadqiqot loyihalari hamda talabalar uchun doktorantura va ilmiy stajirovkalar dasturlarini yo'lga qo'yish istiqbollari muhokama qilindi.

Ushbu uchrashuvlar, imzolangan bitimlar O'zDJTuning Yaponiya oliygo'hlari bilan hamkorligini yangi bosqichga olib chiqish, ilmiy hamkorlikni kengaytirish hamda talaba va ilmiy xodimlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Ta'lim diplomatiyasi va "yumshoq kuch" omili

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlar o'zaro ishonch, strategik manfaatlar va uzoq muddatli rivojlanish tamoyillariga asoslangan.

O'zbekiston – Yaponiya munosabatlarning istiqbollari o'zaro ishonch, strategik manfaatlar va innovatsion taraqqiyot tamoyillariga asoslanadi. Oliy darajadagi tashriflar, ta'lim sohasidagi keng ko'lami hamkorlik va xalqaro forumlar bu aloqalarni sifat jihatdan yanada yuksaltirmoqda. Jumladan, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ishtirokidagi tashabbuslar ikki mamlakat o'rtasida ilmiy, madaniy va insoniy aloqalarni mustahkamlovchi muhim akademik ko'prik vazifasini bajaryapti.

Ilhomjon TO'XTASINOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori,
professor.

REKLAMA

Erieltor

“Elektron Realtor” MChJ

to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan “O'zsanooatqurilishbank” ATB balansida bo'lgan:

– Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, "Pamuza" MFY, Bahouddin Naqshband ko'chasi, 570-uyda joylashgan noturabino va inshoot sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan "www.e-rieltor.uz" sayti orqali tanishish mumkin.

Savdoga qo'yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko'rish imkoniyati bor.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar **“e-rieltor.uz”** platformasi orqali ariza berishadi.

Call-markaz: +99855-517-22-20.
Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

Hurmatli buyurtmachilar!

“Davlat belgisi” MChJ tomonidan ishlab chiqariladigan muayyan tovarlarning narxleri qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ko'rib chiqildi va tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan narxlar **2026-yil 1-yanvardan** kuchga kirishini ma'lum qilamiz.

Yangilangan narxlar ro'yxati bilan jamiyatning rasmiy veb-sayti **“davlatbelgisi.uz”** orqali tanishishingiz mumkin.


Qiziqtirgan savollar bo'yicha quyidagi aloqa kanallari orqali bog'lanish imkoniyati bor:

telefonlar: **71-209-02-70, 71-209-02-73;**
elektron pochta: **davlatbelgisi@exat.uz**

“Davlat belgisi” MChJ.

Og'ir atletika:
MEDALLAR SONI ORTIB BORMOQDA

Og'ir atletika bo'yicha “10th Qatar Weightlifting Cup” turniri yakuniga yetib bormoqda.



Ayollar o'rtasida 77 kilogrammgacha vazn toifasidagi bahslarda yurtimiz sharafini himoya qilgan Mashhura Rustamova dast ko'tarishda 86 kg., siltab ko'tarishda 111 kg. natijani qayd etdi.

Sportchimiz ikki kurash yakunlariga ko'ra, jami 197 kg. natija bilan har uchala yo'nalishda ham musobaqaning kumush medaliga sazovor bo'ldi.

Yana bir hamyurtimiz Ziyoda Xudoyqulova (-63 kg.) dast ko'tarish mashqida 90 kg. toshni bo'ysundirib, uchinchi o'rinni egalladi. U ikki kurash yakunlari bo'yicha 200 kg. natija bilan yana bir bronza medalini qo'lga kiritdi.

Shu tariqa O'zbekiston terma jamoasining musobaqadagi medallari soni hozircha 14 taga yetdi.

Futbol:
TERMA JAMOAMIZNING QATARDAGI YIG'INI

Fabio Kannavaro murabbiyligidagi O'zbekiston milliy terma jamoasi 2026-yilning 22-yanvaridan 2-fevraligacha Qatarida o'quv-mashg'ulot yig'inida ishtirok etadi. Unga mahalliy va yosh futbolchilar jalb qilinadi.



O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi xabariga ko'ra, mazkur yig'in 2026-yilgi jahon chempionatiga tayyorgarlik ko'rish, terma jamoa tarkibi uchun munosib zaxira futbolchilarni shakllantirish hamda yosh o'yinchilarga imkoniyat berish maqsadida uyushtiriladi.

Qolaversa, yig'in davomida murabbiylar shtabi futbolchilarning jismoniy va texnik holatini baholab borishi ko'zda tutilgan.

ELDOR E'TIROF ETILDI

Turkiya superligasida mavsumning yarmi poyoniga yetdi va uning ramziy terma jamoasi shakllantirildi.



Eng zo'r futbolchilardan iborat ro'yxatdan chempionat to'purari, O'zbekiston terma jamoasi sardori Eldor Shomurodov ham joy oldi. 30 yoshli hujumchi Turkiya superligasining joriy mavsumida 12 ta gol urdi va 3 ta golga assistentlik qildi.

Eslatib o'tamiz, mazkur chempionatda Eldordan tashqari Abbosbek Fayzullayev va Husniddin Aliqulov ham to'p suradi.

Shaxmat:
ISHTIROKCHILAR NOMI MA'LUM

Qatarning Doha shahrida sovrin jamg'armasi 1 million yevrodan ziyod bo'lgan shaxmatning rapid va blis yo'nalishlari bo'yicha kattalar o'rtasida dunyo birinchiligi bo'lib o'tmoqda.



Mazkur nufuzli turnirda turli mintaqalardan 393 nafar yetakchi shaxmatchi qatnashyapti. O'zbekiston terma jamoasi FIDE jahon chempionatida 14 nafar shaxmatchi bilan g'oliblik va muhim ochkolar uchun dona suradi.

Eslatib o'tamiz, turnirda O'zbekiston terma jamoasi quyidagi tarkibda ishtirok etadi:

Open bo'limi – N. Abdusattorov, J. Sindorov, N. Yakubboyev, Sh. Vohidov, J. Vohidov, M. Madaminov, M. Suyarov, H. Begmuratov, ayollar bo'limi – A. Hamdamova, U. Omonova, G. Tohirjonova, N. Yakubbayeva, M. Xalilova, G. Karimova.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

11 oyda O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni ilk bor 10 million nafardan oshdi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir **S. Mamirov.**
Musahhih **Sh. Mashrabboyev.**

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 00.40 **1 2 3 4 5 6**